

HARBIY XIZMATCHILAR MAQOMINING HUQUQIY ASOSLARINI RIVOJLANISH BOSQICHLARI

A.A. Tursunboyev

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20843020>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining maqomi shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tarixiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Unda milliy armiyaning vujudga kelishi, harbiy xizmatni huquqiy tartibga soluvchi asosiy qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlarning evolyutsiyasi, shuningdek, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi va kafolatlari tizimining takomillashuvi yoritilgan.

Kalit so'zlar: harbiy xizmat, harbiy xizmatchi maqomi, huquqiy asos, harbiy islohotlar, rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy himoya, milliy xavfsizlik.

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ПРАВОВЫХ ОСНОВ СТАТУСА ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Аннотация. В данной статье с историко-правовой точки зрения анализируется формирование и этапы развития статуса военнослужащих Вооруженных Сил Республики Узбекистан. В ней освещается создание национальной армии, эволюция основных законов и нормативно-правовых актов, регулирующих военную службу, а также совершенствование системы социальной защиты и гарантий для военнослужащих.

Ключевые слова: о военная служба, статус военнослужащего, правовая основа, военные реформы, этапы развития, социальная защита, национальная безопасность.

STAGES OF DEVELOPMENT OF THE LEGAL BASIS OF MILITARY SERVANTS STATUS

Annotation. This article analyzes the formation and stages of development of the status of military personnel in the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan from a historical and legal perspective. It highlights the emergence of the national army, the evolution of basic laws and regulatory legal acts regulating military service, as well as the improvement of the system of social protection and guarantees for military personnel.

Key words: military service, military service status, legal framework, military reforms, stages of development, social protection, national security.

Har qanday mamlakat o'zining suvereniteti va hududiy yaxlitligini, fuqarolarining barqaror hayotini ta'minlash maqsadida o'zining Qurolli Kuchlarini barpo etadi. Institut sifatida Qurolli Kuchlar o'z vazifalariga ega bo'lib, unga oid an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar mavjud, uning asosiy vazifasi suverenitetni ta'minlashdan iboratdir. Mazkur vazifalarni bajarish uchun o'tmishda xalqimiz harbiy san'atida katta o'rin tutgan ilg'or an'analarni o'rganish va kerakli saboqlar chiqarish katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Harbiy xizmatchilar maqomining vujudga kelish tarixi, shakllanish davrlari, huquqiy asoslarini rivojlanish bosqichlari bir qator olimlar, ilmiy tadqiqotchilar hamda izlanuvchilar tomonidan atroflicha o'rganilgan.

Sohibqiron Amir Temur o'zining "Temur tuzuklari"da harbiylarning maqomiga oid bir qator muhim jihatlarni ko'rishimiz mumkin. Jumladan "Tuzuk"larning "askar va amirlarni tanlash haqida"gi tuzugida «Kimki jasorat va mardlik ko'rsatsa, uni ulush va mansab bilan ulug'ladim. Kimki xizmatda fidoyilik qilsa, unga in'om va e'tiborni ziyoda qildim»[1]. Bu orqali Amir Temur xizmat samarasiga yarasha lavozim, unvon va in'om berishni qonun-qoida darajasiga ko'targan.

Qolaversa. “Sipoh saqlash tuzugi”, “O‘g‘illar, nabiralar, qavm-qarindoshlar, amirlar va vazirlarni jazolash yo‘li bilan saltanatda intizom saqlash haqidagi”, “Askarni eng quyi martabadan oliy martabagacha tarbiyalab ko‘tarish” tuzuklari orqali harbiylarning huquqlari va majburiyatlariga oid dastlabki normalarni ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, Amir Temur: “G‘animatni har kimning xizmat darajasiga qarab taqsim qildim. Hech kimni nohaqdan ulushsiz qoldirmadim” deb yozgan. Mazkur norma harbiylarning moddiy manfaatlarini himoya qilish va qo‘shinda ijtimoiy adolatni ta‘minlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Sohibqiron harbiylar orasida harbiy intizom masalasi ham alohida e‘tibor qaratib “...kimki buyruqqa itoat etmasa, uni qattiq jazoladim. Intizomni buzganlarni ibrat uchun jazo bilan to‘xtatdim”. Bu qoida harbiy xizmatning majburiy xususiyati va buyruqqa so‘zsiz itoat etish tamoyilini mustahkamlaydi.

Yuqoridagi fikrlar “Temur tuzuklari”ning harbiy xizmatchilar maqomiga oid normalarni shakllanishidagi tarixiy ahamiyatini tasdiqlaydi, shuningdek, davlatning harbiy qudratini ta‘minlashda harbiy xizmatchilarning maqomi fundamental asoslari bilan izohlanadi.

Tadqiqotchi SH.X.Vohidov tomonidan Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligidagi harbiylarning unvonlari va mansablari ilmiy tadqiq etilgan. Muallif Xiva xonligidagi harbiylarning unvonlari va mansablarini saroy, harbiy va diniy unvon hamda amallarga bo‘lgan.

Tadqiqotchining fikricha, bu tasnif sof nazariy bo‘lib, aslida xonlik davrida muayyan unvon va mansablar sohalar bo‘yicha berilmagan.[1] Tarixchi olim T.D.Xudayqulov doktorlik dissertatsiya ishining uchinchi “Xonliklarning harbiy boshqaruvi” deb nomlangan bobida harbiy xizmatchilar maqomiga oid bo‘lgan harbiy unvon va harbiy mansablarning davlat boshqaruvidagi ahamiyatini alohida kompleks tadqiq etgan[2].

Tadqiqotchi B.Tursunov tomonidan Qo‘qon xonligida harbiy mansablar va ularning vazifalarini tahlil etilgan. Tadqiqotchi fikricha asrlar davomida shakllangan harbiy tizim o‘zining asosiy xususiyatlarini XVIII-XIX asr birinchi yarmida ham saqlab qolgan. Buni Qo‘qon xonligida tadqiqotga tortilgan davr chegarasida mavjud bo‘lgan harbiy mansablar va ularni egalari vazifalarini tahlil etish orqali ham kuzatish mumkin. Garchi, Qo‘qon xonligidan oldingi davrlarda Markaziy Osiyoda, xususan, Amir Temur davlatida mavjud bo‘lgan harbiy boshqaruv sohasidagi maxsus devon bo‘lmagan bo‘lsa-da, turli toifadagi harbiy amaldorlar bo‘lib, davlat tomonidan ular zimmasiga yuklatilgan vazifalar aniq tizimga solingan edi. Tarixiy manbalar ma‘lumotlariga asoslangan holda Qo‘qon xonligida uch toifadagi – oliy, o‘rta, quyi darajadagi harbiy mansab va unvonlar borligini kuzatish mumkin. Garchi islohotlar o‘z davriga nisbatan kechikkan va yaxshi natijalarni bermagan bo‘lsa-da, hokimiyatning markazlashuviga ko‘maklashgan, mamlakat harbiy qudratini sifat jihatdan yangi darajaga ko‘targan omillardan biri bo‘ldi. Shunga qaramay, xonlik harbiy sohasida qo‘llanilgan qurol-yarog‘lar yevropacha namunalardan orqada qolgan bo‘lib, zamon talablariga javob bermas edi. Xonlikda mavjud qurol-yarog‘ ishlab chiqaruvchi ustaxona va zavodlar ham yetarli darajada mahsulot ishlab chiqara olmas edi. Qo‘qonda bir necha harbiy mansab egalari ular xizmat qiladigan dasta (polk) va to‘p (yuzlik) rahbariga 8 kunlik ta‘til berilar edi. Oddiy askarlarga jang bo‘lmagan paytda imkoniyatga qarab, har 10 kishidan bir kishiga ta‘til berilgan.[3]

XXI asr bo‘lag‘asida jahon taraqqiyotining mazmuni tubdan o‘zgardi.

XX asrning 40-yillaridan 90-yillarigacha bo‘lgan davr oralig‘ida bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikki ijtimoiy-siyosiy tuzum, ikki harbiy-siyosiy blok mavjud edi. Dunyoning tinchligi va xavfsizlik tizimi shu ikki davlatning, blokning o‘zaro muxoliflik muvozanatiga asoslangan edi. Dunyoda “sovuq urush” siyosati hukmronlik qilardi. Butun insoniyat yadro urushi xavfi ostida yashardi. XX asrning 90-yillariga kelib sotsialistik tuzum parokanda bo‘ldi.

Dunyoda yangi mustaqil davlatlar vujudga keldi. Birgina sobiq Ittifoqning parchalanishi natijasida 15 ta davlat, shu jumladan, O'zbekiston o'z mustaqilligiga ega bo'ldi. Xalqaro vaziyatda tub o'zgarishlar sodir bo'lsa-da, "sovuq urush" siyosati barham topgan bo'lsa ham, dunyo hamon mo'rt, murakkab va muammoli bo'lib, turibdi. Dunyo tinchligiga tahdid soluvchi xavf-xatarlar, ziddiyatlar saqlanib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining yaratilishida, Oliy qonunchilik organining muhim hujjati - O'zbekiston Respublikasi Oliy Ittifoqining 1992-yil 14-yanvardagi qarori hisoblanadi, unga ko'ra sobiq ittifoq Qurolli Kuchlarining O'zbekiston hududida joylashgan barcha harbiy qismlari, birlashmalari, harbiy bilim yurtlari, harbiy muassasalari va tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi ixtiyoriga, yurisdiksiyasiga o'tkazildi va ularning moddiy, material – texnik ta'minoti joriy etildi. Mintaqada shakllangan harbiy-siyosiy va harbiy-strategik sharoitga ko'ra va dunyoda kechayotgan siyosiy jarayonlarning rivojini tahlilidan kelib chiqib, 1992-yil 3-iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Ittifoqi «Mudofaa to'g'risida», «Umumharbiy majburiyatlar va harbiy xizmat» to'g'risida, «Muqobil xizmat» to'g'risidagi qonunlarni qabul qildi. Yosh mustaqil davlat talablariga javob beradigan Qurolli Kuchlarining yaratilishida mustahkam qonuniy poydevor yaratildi. O'zbekiston Respublikasi, davlat manfaatlarini himoya etish uchun yetarli bo'lgan Qurolli Kuchlarini yaratdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, Qurolli Kuchlarni yaratilishini boshlab bergan bir necha meyoriy hujjatlar imzolandi.

Ularning birinchilari qatorida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 6-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligi va Qurolli Kuchlar Bosh Shtabining yaratilishi» to'g'risidagi qarorning imzolanishidir. Qarorning maqsadi bosqichma-bosqich professional armiyani yaratish, tarkibi bo'yicha kam sonli, lekin harakatchan, zamonaviy harbiy texnika va qurol-yarog' bilan jihozlangan, O'zbekiston xavfsizligini mustaqil va ishonchli himoya etishga qodir armiyani yaratish edi. Quruqlikdagi qo'shinlarning, korpus-brigada-batalon tashkiliy-shtat tizimiga o'tkazish boshlandi, bunda taktik birlashma brigada hisoblandi, asosiy taktik element batalon bo'lib qoldi. Bunday tizim yuqori manyovrchan harakatlarni va jangovar tartiblarda operativ qurilishning ixchamligini ta'minlab, jang maydonida boshqaruvni yengillashtirishga olib keladi.[4]

Qurolli Kuchlar faoliyatidagi muhim masalalardan biri - bu yoshlarni harbiy xizmatga jalb etish masalasi bo'lib, bu borada ham yangi tartiblar ishlab chiqildi va amalga kiritildi.

Ma'lumki, mustaqillikka qadar, ya'ni sovet davrida O'zbekistondan chaqirilgan yigitlar, odatda, eksterritorial tamoyilga asosan respublika hududidan olisda, shu jumladan, ittifoq chegarasidan tashqarida harbiy xizmat o'tar edilar. O'zbekiston Respublikasida Qurolli Kuchlarini shakllantirish borasida qabul qilingan farmon, qaror va qonunlar bunday ahvolga barham berdi.

1992-yil O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan qabul qilingan qarorga muvofiq, Litva, Latviya, Estoniya, Gruziya, Ukraina, Ozarbayjon, Moldova, shuningdek, Kavkazorti harbiy okrugi va Kaspiy flotiliyasida muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar bir oy muddat ichida O'zbekistonga chaqirildi va qaytarildi. Ularning 18 oydan ko'p xizmat qilganlari zaxiraga bo'shatildi, 18 oydan kam xizmat qilganlar esa O'zbekiston hududidagi qo'shnlarga xizmatni davom ettirish uchun yuborildi. Shu bilan birga, ularga muddatli yoki muqobil harbiy xizmatni o'tash uchun tanlov imkoniyati berildi.

Mustaqillik davrida Qurolli Kuchlarda kuchli ijtimoiy himoya siyosati yo'lga qo'yildi.

Armiyada xizmat qilayotganlar yoki xizmat burchini a'lo darajada bajarganlar uchun katta imtiyozlar yaratildi.

Shu o'rinda, O'zbekiston Qurolli Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilari maqomining huquqiy asoslarini rivojlanish bosqichlari tarixiga qisqacha to'xtalib o'tmoqchimiz. Davlat tomonidan harbiy xizmatchilarning shaxsiy daxlsizligi, mehnat qilish huquqi, dam olish huquqi, ijtimoiy ta'minot huquqi kafolatlandi.

Bu davr 1989 yilda Sobiq Ittifoq qo'shinlarining Afg'onistondan olib chiqib ketilishi, keyinchalik Sobiq Ittifoqning parchalanib ketishi bilan bog'liq og'ir vaziyat bilan bog'lashimiz mumkin. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992 yil 3 iyulda bo'lib o'tgan sessiyasida yosh mustaqil davlatning mudofaa sohasidagi siyosatining asoslari belgilandi. Shu kuni O'zbekiston Respublikasining "Mudofaa to'g'risida", "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida" [5], "Harbiy qasamyod to'g'risida" [6]va "Muqobil xizmat to'g'risida"gi qonunlari qabul qilindi.

1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi konstitutsiyaviy Qonunning qabul qilinishi Qurolli Kuchlarning yaralishiga tamal toshini qo'ydi. Aynan shu Qonunning 6-moddasidagi "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish, Milliy Gvardiya va noharbiy (muqobil) xizmat tashkil etish huquqiga ega" deb belgilangan normaga muvofiq, 1991-yil 6-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish to'g'risida"gi PF-243-son Farmoni hamda va 1991 yil 25 oktabrda Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligi masalalari" to'g'risidagi 269-son qarori qabul qilinib, Mudofaa ishlari vazirligi, uning tarkibida esa Milliy Gvardiya tashkil etildi.[7]

Bu davrda Respublika ichki ishlar organlari xodimlarining, ichki qo'shinlar va milliy xavfsizlik organlari harbiy xizmatchilarining moddiy ahvolini qo'llab-quvvatlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 10-yanvardagi 8-son qarori asosida Ichki ishlar vazirligi, ichki qo'shinlari hamda Milliy xavfsizlik xizmati harbiy xizmatchilarining lavozim maoshlari 1,9 baravarga oshirildi. Mazkur qaror asosida ichki ishlar organlari o'rta, katta va oliy boshliqlar tarkibining maxsus unvonlari hamda ichki qo'shinlar va milliy xavfsizlik organlari ofitserlar tarkibining harbiy unvonlari bo'yicha lavozim maoshlari miqdori 2 baravarga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati harbiy xizmatchilarini harbiy xizmat vazifalarini bajarish bilan bog'liq ravishda oladigan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lovlar bo'yicha daromad solig'i, shuningdek, bo'ydoqlar, yolg'iz va kam sonli oila a'zolari bo'lgan fuqarolar uchun belgilangan soliqni to'lashdan ozod etildi.

1992-yil 14-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining "O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan harbiy qismlar va harbiy ta'lim muassasalari to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurti, Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti va Samarqand oliy harbiy avtomobil qo'mondonlik bilim yurti respublika bo'ysunuviga o'tkazildi, Turkiston harbiy okrugi tugatilib, uning negizida Bosh shtab va Mudofaa ishlari vazirligining hududiy organlari tashkil etildi.[8]

Qolaversa O'zbekiston Respublikasi yurisdiksiyasiga o'tkazilgan harbiy qism, muassasa, korxona, tashkilot, harbiy bilim yurtlari, oliy va o'rta-maxsus ta'lim muassasalarining harbiy kafedralari va tayyorlash bo'linmalari ishchi va xizmatchilarining hamda haqiqiy harbiy xizmatdagi harbiy xizmatchilarning lavozim okladlari, tarif stavkalari va ofitserlar tarkibining harbiy unvonlari uchun okladlar kattaligini 1991-yilga nisbatan 2-barobarga oshirish bo'yicha maxsus qaror ishlab chiqilishi va qabul qilinishi, shuningdek, a'lo xizmatlari uchun qo'shimcha moliyaviy rag'batlantirish va turar joy ijarasi uchun kompensatsiya to'lash tartibi belgilandi.

Keyinchalik 1992-yil 3-iyulda “Mudofaa to‘g‘risida”gi, “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi, “Muqobil xizmat to‘g‘risida”gi Qonunlar qabul qilindi va shu tariqa Qurolli Kuchlar faoliyatining huquqiy bazasi yaratila boshlandi. 1993-yil 29-dekabr kuni “Vatan himoyachilari kunini belgilash to‘g‘risida”gi Qonuni asosida 14-yanvar Qurolli Kuchlar tashkil etilgan kun sifatida keng nishonlanadigan bo‘ldi. 1994-yil 22-sentyabrda esa Jinoyat kodeksi qabul qilinib, harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilandi. Shu tariqa Qurolli Kuchlar faoliyatining huquqiy bazasi yaratila boshlandi. Muddatli harbiy xizmatchilarning oilalari ular muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan davrdagi yer solig‘i to‘lashdan ozod qilindi. 1996 yil 30 avgustdan esa haqiqiy muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilar shahar yo‘lovchilar transportidan bepul foydalanish huquqiga ega bo‘ldilar.[9]

Harbiy xizmatni o‘tashni tartibga solish, harbiy xizmatchilarning huquq va burchlarini, garnizon va qorovullik xizmatlarining ichki tartib-qoidalarini belgilash, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, chegara hamda ichki qo‘shinlarida harbiy intizom va huquq-tartibotni mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 9-oktabrdagi PF-1571-son Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy nizomlarini tasdiqlandi hamda 1996-yilning 1-dekabridan amalga kiritildi. 1997-yil 10-yanvardan muddatli harbiy xizmatchilar va kursantlarning oylik maoshlari eng kam ish haqiga nisbatan foiz hisobida belgilab qo‘yildi, endilikda muddatli harbiy xizmatchilar va kursantlarning eng kam oylik maoshlari respublika hududida yagona tarif setkasida qabul qilingan eng kam ish xakining 50 foizi miqdorida belgilab qo‘yilgan yoki muddatli harbiy xizmatchilar va kursantlarning joriy oylik maoshlari o‘rtacha 1,5 barobar oshirildi.[10]

Qurolli Kuchlarda, harbiy idoralarda va O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq tashkil etilayotgan boshqa harbiy tuzilmalarda qonunchilik va huquq-tartibotni mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 23-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi harbiy sudini tashkil qilish to‘g‘risida”gi PF-2421-son Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tashkil qilindi. [11]

2000-yil 15-avgustdagi “Vatanimiz xavfsizligi, sarhadlarimiz himoyasi yo‘lida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning oilalariga davlat tomonidan yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 324-son qarori qabul qilinib halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning oilalariga to‘lanishi lozim bo‘lgan mablag‘lar berildi, halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar oilalarining har biriga qo‘shimcha moddiy yordam tariqasida Vazirlar Mahkamasi zaxira fondidan bir million so‘m miqdorida moddiy yordam puli to‘landi, ularning oilalari turmush sharoiti va ehtiyojidan kelib chiqib, mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan zarur yordam choralari ko‘rish, nomlarini abadiylashtirish yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilish belgilandi.

Milliy darajada esa harbiy tajovuz tahdidi yuzaga kelgan, favqulodda vaziyatlar ro‘y bergan taqdirda harakatdagi qo‘shin guruhlarini kuchaytirish hamda yangi qo‘shin guruhlarini tuzishni tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasi “Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to‘g‘risida”gi[12], qurol-yarog‘, harbiy texnika, harbiy mol-mulk va harbiy tarkibni respublika tashqarisiga jo‘natish yoxud uning hududi orqali tashishni tartibga soluvchi “Maxsus yuklar va harbiy tarkiblarning tranziti to‘g‘risida”gi kabi Qonunlar qabul qilindi

2002-yil 15-fevralda “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining shaxsiy guvohnomasini va harbiy xizmatga majburlarning guvohnomasini amalga kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 55-son qarori

bilan harbiy xizmatchilarning va harbiy xizmatga majburlarni harbiy hisobga olish tizimini takomillashtirildi.[13] 2005-yil 19-avgustda “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-158-son Qarori qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy xizmatning nufuzini oshirish, harbiy xizmatchilarning pul ta‘minoti, ularni moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish vazifalarini amalda hal etish maqsadida 2005-yilning 1-sentyabridan boshlab muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilarning boshlang‘ich nulinchi razryadga nisbatan 1,30dan 1,81gacha koeffitsiyentlar o‘rnatilgan holda mansab maoshlari miqdori 1,2 baravar etib belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari ofitserlari hamda kontrakt bo‘yicha xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarining mansab maoshlariga mavjud 15 foizli oylik ustama haq bekor qilinib, harbiy unvonlar bo‘yicha maoshlarning yangi miqdorlari belgilandi.

2005-yilning 1-sentyabridan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari ofitserlari va kontrakt bo‘yicha xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarining pul ta‘minotiga belgilangan xizmat muddatini o‘taganlik uchun oylik foizli ustama haq miqdorlari quyidagicha belgilandi: 3 yildan 5 yilgacha xizmat muddatini o‘taganda - 15 %, 5 yildan 10 yilgacha xizmat muddatini o‘taganda - 25 %, 10 yildan 20 yilgacha xizmat muddatini o‘taganda - 30 %, 20 yildan ortiq xizmat muddatini o‘taganda — 30 % miqdorda.

2006-yil 14-yanvarda “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida”gi PQ-257-son qarori qabul qilinishi bilan endilikda Qurolli Kuchlarni butlash kontrakt asosida amalga oshiriladigan bo‘ldi. Nizomga zid munosabatlarga barham berish maqsadida 2008-yildan boshlab fuqarolarni yiliga bir marta muddatli harbiy xizmatga chaqirish amaliyoti joriy etildi.

2019-yilning 5-sentabrda “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun Prezident tomonidan imzolandi. Qonun bilan 10 dan ortiq qonunlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Jumladan “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonunga kiritilgan o‘zgartirishlarga ko‘ra, muddatli harbiy xizmat muddati kalendar hisobida o‘n ikki oy qilib belgilandi (hozirga qadar oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimidagi xizmatchilar uchun - o‘n ikki oy (oliy ma‘lumotli shaxslar uchun - to‘qqiz oy), chaqiruv bo‘yicha ofitserlar tarkibi lavozimlarida o‘tayotgan ofitserlar uchun - to‘qqiz oy) etib belgilandi. Shuningdek, fuqarolarni chaqiruv uchastkalarida qayd etish ular umumta‘lim maktabidagi yoki o‘rta-maxsus ta‘lim muassasasidagi oxirgi o‘qish yilining aprel-may oylarida amalga oshirilishi belgilandi. (Bunga qadar ular o‘n olti yoshga to‘lgan yili aprel - iyun oylarida amalga oshirilib kelgan edi).

2019-yil 12-sentyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi PQ-4447-son qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini Vataniga sodiq, harbiy xizmatga har tomonlama tayyor bo‘lgan fuqarolar bilan butlash, ular tomonidan harbiy xizmatni o‘tash tartibi va sharoitlarini, qo‘shinlarning davlatning xavfsizligi va hududiy yaxlitligini himoya qilishga doimiy jangovar shayligini ta‘minlash, shuningdek, harbiy xizmatchilar va ularning oila a‘zolarini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qildi.

Qarorda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi yangi tahrirdagi nizomda mamlakatimizda harbiy xizmat nufuzini yuksaltirish va Qurolli Kuchlarimiz jangovar shayligini yanada oshirish maqsadida qo‘shin turlarini yosh,

shijoatli, vatanparvar, sadoqatli va intellektual salohiyatli yoshlar bilan butlash, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga qabul qilish shartlari, harbiy xizmatni o'tash jarayoni, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi masalalari va harbiy xizmatdan rezervga bo'shatish tartibi bilan bog'liq ko'plab masalalar huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi. Rivojlangan xorijiy davlatlar amaliyotini o'rganish, yillar davomida harbiy xizmatni o'tash tartibi bilan bog'liq yo'nalishda vujudga kelgan muammolar, to'plangan hayotiy tajriba va xizmat amaliyotini inobatga olgan holda yangilangan ushbu nizom oldingisidan 80 foizga o'zgartirildi. Jumladan, eski tahrirdagi nizom 12 ta bob, 38 ta bo'lim va 382 ta banddan iborat bo'lib, uning ilovasiga 3 turdagi kontrakt blankalar ilova qilingan edi. Yangi tahrirdagi nizomda bir-birini takrorlovchi 18 ta band birlashtirilib, 38 ta bo'lim har bir bob tarkibiga 37 ta alohida-alohida paragraf qilib kiritildi, natijada nizom 13 ta bob, 360 ta banddan iborat ko'rinishga keltirilib, ilovalar qismi 4 turdagi kontrakt blankalariga ko'paytirildi.

Yangi tahrirdagi nizom bilan Qurolli Kuchlarimizni kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilar bilan butlashning eksterritorial prinsipi bilan birga yana yangi - territorial prinsipi joriy etildi. Mazkur normaning yangi nizom bilan tasdiqlanishi harbiy xizmatchilarning xizmat joyini o'zgartirish (rotatsiya) bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarni tartibga soladi.

Harbiy xizmatchilar O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga o'qishga yuborilayotganda ular bilan o'qish shartlari hisobga olingan va o'qish tugagandan so'ng belgilangan muddat mobaynida harbiy xizmatni o'tash majburiyatlari aks ettirilgan maxsus kontrakt tuzish tizimi yo'lga qo'yildi (eski tahrirda ushbu tartib joriy qilinmagan).

Yangi tahrirdagi nizomning 6-bobida teng yoki past lavozimlarga tayinlash bilan bog'liq bandlariga o'zgartirishlar kiritilishi bilan harbiy xizmatchilarni lavozimlarga tayinlash borasida yuzaga kelayotgan muammoli vaziyatlarning bartaraf etilishiga erishildi.

Harbiy xizmatchilarni attestatsiyasidan o'tkazish tartibi qisqartirilib, bundan buyon harbiy xizmatchilar harbiy unvon olish uchun, yuqori lavozimga tayinlanish uchun, oliy harbiy ta'lim muassasasini tamomlaganidan so'ng, shuningdek, rezervdagi (zaxiradagi) ofitserlarni harbiy xizmatga qabul qilish davrida majburiy tarzda attestatsiyadan o'tkazmaslik tartibi joriy qilindi. Bundan tashqari, attestatsiya komissiyalarining tarkibi Qurolli Kuchlar tizimidagi vazirlik va idora rahbarlari tomonidan shakllantirilishi va belgilanishi (eski tahrirda komissiya tarkibi qat'iy ravishda belgilangan edi) joriy qilinib, attestatsiya komissiyasi yig'ilishida qabul qilinadigan qaror va takliflar ro'yxati soddalashtirildi. Nizomning "Harbiy unvonlar" bobida muhim o'zgarishlardan yana biri sifatida serjantlar tarkibi uchun "I darajali serjant", "II darajali serjant" va "III darajali serjant" harbiy unvonlari va uning muddatlari joriy etildi. Nizomning "Harbiy xizmatchilarni haqiqiy harbiy xizmatdan bo'shatish" bobi harbiy xizmatni o'tash tartibi bilan bog'liq zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda soddalashtirilib, optimal ko'rinishga keltirildi.

Bundan buyon kamida yigirma kalendar yili mobaynida harbiy xizmatni benuqson o'tagan ofitserlar tarkibiga mansub kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilarga harbiy xizmatdan bo'shatilayotgan vaqtda tegishli buyruqlar bilan harbiy formani kiyish va farqlovchi nishonlarni taqish huquqi beriladi.

Nizomning "Qurolli Kuchlar rezervdagi xizmat" bobida rezervdagi harbiy xizmatga majburlar bilan o'tkaziladigan yig'in turlari qisqartirilib, ularni o'tkazish tartibi soddalashtirildi. Qurolli Kuchlar rezervida bo'lishining yosh chegaralari O'zbekiston Respublikasi "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonunining 30-moddasi talablariga moslashtirildi. [14] 2019-yil 3-iyulda "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmat

majburiyatlarini bajarish chog'ida tan jarohati olgan harbiy xizmatchilarga (xodimlarga) yoki halok bo'lgan (vafot etgan) harbiy xizmatchilarning (xodimlarning) oila a'zolariga bir martalik nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi PQ-4382-son qarori bilan Qurolli Kuchlar tizimida xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida tan jarohati olgan harbiy xizmatchilarga (xodimlariga) yoki halok bo'lgan (vafot etgan) harbiy xizmatchilarning (xodimlarning) oila a'zolariga, shuningdek, Vatan himoyasi va el-yurt tinchligi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning (xodimlarning) oila a'zolariga bir martalik nafaqa tayinlash va to'lash tartibini belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni bilan "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" qabul qilindi. Ushbu strategiyaning VII bobining 91 maqsadida "Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ularga ko'rsatilayotgan tibbiy ta'minot sifatini yanada oshirish" belgilandi.[15]

2023-yil 13-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Vatan himoyasi va el-yurtimiz tinchligi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va odimlar oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-34-son Farmoni qabul qilinib Vatan himoyasi va el-yurtimiz tinchligi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va xodimlar oila a'zolari hamda ularning qaramog'idagi shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga g'amxo'rlik qilish va hurmat-ehtirom ko'rsatish, shuningdek, jamiyatda ezgulik, hamjihatlik va insoniylik muhitini yanada mustahkamlash maqsadida 2023-yil 1-apreldan boshlab halok bo'lgan harbiy xizmatchi (xodim) oila a'zolariga biryo'la beriladigan nafaqa marhumning oxirgi egallagan lavozimi bo'yicha maoshi va harbiy (maxsus) unvoni maoshi yig'indisining 150 baravari miqdorida, harbiy xizmatchilarning (xodimlarning) davlat majburiy shaxsiy sug'urtasi doirasida harbiy xizmatchi (xodim) halok bo'lganda to'lanadigan sug'urta summasi bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravari miqdorida etib belgilandi.

2025-yil 1-iyundan boshlab qonunchilik hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan ipoteka kreditlarini ajratish ko'rsatkichlari asosida uy-joy bilan ta'minlanadigan, kalendar hisobida o'n yildan ortiq harbiy xizmatni o'tagan harbiy xizmatchilarga turarjoy sotib olish (qurish) uchun ipoteka krediti olinishida ajratiladigan dastlabki badal miqdorini uy-joy hisoblangan qiymatining 35 foizi miqdorida etib belgilandi.

2025-yil 25-iyunda O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining "Internet tarmog'idagi tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar, lotereya va bukmekerlik garovlarida qatnashishi taqiqlangan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va chet el fuqarolarining toifalari ro'yxatini tasdiqlash haqida"gi 13-son buyrug'i qabul qilinib (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 7-iyulda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3642), unga muvofiq internet tarmog'idagi tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar, lotereya va bukmekerlik garovlarida qatnashishi taqiqlangan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va chet el fuqarolarining toifalari ro'yxati tasdiqlanib, Prokuratura organlari, ichki ishlar, Milliy gvardiya va bojxona organlari xodimlari hamda harbiy xizmatchilar, shuningdek xizmatni o'tash vaqtida qo'riqlash bo'linmalarining harbiy xizmatchilari, xodimlari, ishchilari va xizmatchilari kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmat qilayotgan harbiylar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar va kuchli ijtimoiy himoya siyosati ularni vatan oldidagi o'z

burchlarini sharaf bilan bajarishlari uchun moddiy va ma'naviy rag'bat bo'lmoqda. Bugungi kunga kelib armiyada o'z yigitlik burchini o'tab, xizmat qilish katta sharafiga aylandi.

Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari maqomining shakllanishini shartli ravishda to'rt bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich, 1992-yildan 1995-yilgacha bo'lgan davr oralig'i hisoblanib, bunda milliy armiya vujudga kelish bilan bir qatorda harbiy xizmatchilar maqomiga oid ilk normalar, harbiy xizmat o'tash shartlari, ijtimoiy himoya, moddiy rag'batlantirish va konstitutsiyaviy huquqlar bo'yicha ilk kafolatlar tartibga solingan.

Ikkinchi bosqich, 1996-yildan 2000-yilgacha bo'lgan davr oralig'i hisoblanib, bunda harbiy xizmatchilarning javobgarlik choralari aniq belgilanidi, harbiy intizomni ta'minlash, harbiy xizmatga chaqirish tartibi, muddatli harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini ijtimoiy himoya qilish, moddiy farovonligini oshirish, harbiylar tomonidan sodir etiladigan nizolar, jinoyatlar va intizomiy masalalarni ko'rib chiquvchi harbiy sud tizimini yaratilgan.

Uchinchi bosqich, 2001-yildan 2016-yilgacha bo'lgan davr oralig'i hisoblanib, bunda Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarning huquqlari, majburiyatlari, javobgarligi, ijtimoiy kafolatlari va imtiyozlari, shuningdek chaqiruv, kontrakt asosida xizmat tartibini qamrab olgan huquqiy asoslar yanada shakllantirildi. Harbiy xizmatchilar va ular oilalarining ijtimoiy himoyasini kuchaytirildi, davlat xavfsizligi manfaatlari bilan inson huquqlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan yaxlit va izchil tizim yaratilgan.

To'rtinchi bosqich, 2017-yildan hozirgacha bo'lgan davr oralig'i bo'lib, Qurolli Kuchlarning yangi tarixi hisoblanadi, 2017-yildan Prezidentimizning harbiy sohani, harbiy xizmatchilarning maqomini takomillashtirish, ularning ijtimoiy himoyasi, huquq va erkinliklarini takomillashtirish, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni tashkil etishga qadar tizimli muammolarni hal etilganligi bilan ahamiyatlidir. Mamlakat mudofaa salohiyatini mustahkamlash, zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika turlari bilan jihozlash orqali Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini yanada oshirish, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy ta'minoti darajasini oshirish kabi bir qator konseptual tashabbuslar 2017-2021 yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida, shuningdek, Yangi O'zbekiston Strategiyasida o'z aksini topdi.

Xulosa qilib aytganda, istiqlol O'zbekiston xalqiga o'z ozodligi, davlat mustaqilligi, milliy ma'naviyatini tiklash va mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlab olish imkonini berdi. Ayni paytda so'nggi 130 yil davomida mustamlaka iskanjasida yashagan xalqimiz o'z milliy armiyasini tashkil etish, vatan sarhadlarini mustaqil mudofaa qilish, uni o'z kuchlari bilan asrab-avaylash va himoya qilish imkoniga ega bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Vohidov SH.H. Qo'qon xonligi va Buxoro amirligidagi unvon va mansablar. – B. 7002E
2. Xudayqulov T.D. Markaziy osiyo davlatlarining boshqaruv tarixi (markaziy, mahalliy, harbiy, diniy hokimiyat (XVIII-XX asr boshlari). t.f.d (DSc). diss. avtoreferati. Qarshi 2022. — B. 22.
3. Tursunov B. Qo'qon xonligida harbiy ish va qo'shin: holati, boshqaruvi, an'analari (XIX asrning 70-yillarigacha). Monografiya. – Namangan, 2014. – B. 136.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 6-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari Vazirligi va Qurolli Kuchlar Bosh Shtabining yaratilishi»

- to'g'risidagi qarori. //https://lex.uz O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik hujjatlari milliy bazasi
5. Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.12.2002 yildagi 436-II-son // O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik hujjatlari milliy bazasi
 6. Harbiy qasamyod to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Qarori, 03.07.1992 yildagi 648-XII-son) // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik hujjatlari milliy bazasi
 7. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini tuzish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Qonunchilik hujjatlari milliy bazasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991-y., 11-son, 230-modda
 8. Qurolli Kuchlar. Tarix va islohotlar jarayoni. <http://army.ziynet.uz>
 9. O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 30 avgustdagi 278-1-sonli «Shahar yo'lovchilar transportida bepul foydalanishni tartibga solish to'g'risida»gi qonuni. // <https://lex.uz> (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi)
 10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 10 yanvardagi PF-1697-sonli «Muddatli harbiy xizmatchilarning oylik maoshlarini oshirish to'g'risida»gi Farmoni // <https://lex.uz> (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi)
 11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 23.09.1999 yildagi PF-2421-son <https://lex.uz/docs/-214704>
 12. O'zbekiston Respublikasining O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to'g'risida Qonuni, 25.04.2003 yildagi 478-II-son//<https://lex.uz> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi
 13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining shaxsiy guvohnomasini va harbiy xizmatga majburlarning guvohnomasini amalga kiritish to'g'risida qarori 15.02.2002 yildagi 55-son // <https://lex.uz> (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi)
 14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida 07.02.2017 yildagi PF-4947-son //<https://lex.uz> (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi)
 15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son //<https://lex.uz> (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi)